

SINFDAN TASHQARI ADABIYOT DARSLARINI LOYIHALASHTIRISH

Saidova Nodira Mustakimovna

Buxoro davlat universiteti ,Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqola umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot darslarini o'qitish jarayonida badiiy matn tahlilining uslubiy muammosiga bag'ishlangan. Sinfdan tashqari adabiyot darslarini o'tishda samarali natija beruvchi immanent va kontekstual tahlil turlariga izoh berilgan.*

Kalit so'zlar: *Kitobxonlik,matn tahlili, metod, tushunish,o'rganish, immanent, kontekstual, yaqin kontekst, uzoq kontekst.*

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Adabiyot va O'qish darslarini o'tishda badiiy tahlil juda muhim sanaladi.Berilgan asar matni xoh she'riy ,xoh nasriy bo'lsin,matn tahlili juda muhim sanaladi. Badiiy matn tahlilining o'ziga xos muammolari mavjudki, bu esa o'quvchiga matnni to'liq anglab olishiga to'sqinlik qilishi mumkin.Bunday muammolarni bartaraf etish uchun adabiyot va boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'ta zukko,talabchan va ijodkor bo'lmog'i lozim. Odatda,tahlil uchun bir yoki bir nechta usullarni tanlash matnning mazmuniga va o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Ammo uslubiy amaliyotda eng samarali va to'g'ri bo'lgan ikkita yondashuvning- immanent va kontekst yondashuvlarining uyg'unligi ijobiy natija beradi. Bu ikki yondashuv deyarli barcha asosiy adabiy usullarni qamrab oladi va matnni yaxlit va to'la tushunishga yordam beradi. Adabiy asarni o'rganishda immanent va kontekst tahlildan foydalanish imkoniyatlari va chegaralari batafsil ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.Mazkur yondashuvlar asosida olib borilgan tahlil jarayonlarida o'quvchilarda mustaqil fikrlash,tanqidiy munosabat bildirish,muallif hayoti va matn ortasidagi uzviylik tushunchalari paydo bo'ladi.

Adabiyot o'qitish metodikasining nazariy takomillashuviga qaramay, ko'pchilik pedagoglar o'rtasida munozarali va hal etish qiyin bo'lgan muammolar mavjud. Ulardan biri badiiy asarning tahlilidir,ya'ni matn tahlilidir. Ushbu metodologik muammo o'qish kitobidagi bolalar nasriga oid mavzularda ham mavjud. Masalan,Y.X.Hojibning "Qutadg'u bilig"asaridan parcha berilgan. (3-sinf O'qish) Mazkur mavzuni o'tishda ko'pchilik pedagoglar qiynalishadi va o'quvchilarga asar parchasini yodlatibgina chekinishadi.Aksincha,matn mazmunidan kelib chiqib,pedagogik yondashuvlar asosida o'tilgan mashg'ulot samarali yakun topadi.

Eng avval tahlil, xususan, badiiy asar tahlili tushunchasiga alohida e'tibor berish lozim. Matn tahlilida asosiy e'tibor matn mazmuniga qaratiladi.Matn





muallifining maqsadi, o'quvchilarga yetkazib bermoqchi bo'lgan g'oyasiga diqqat qilmoq kerak. Matn tahlili bilan bog'liq dars mashg'ulotlarida loyihalashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki o'qituvchi butun boshli darsni boshidan yakuniga qadar bo'lgan vaqtini oldindan rejalashtirib chiqadi. Beriladigan topshiriqlarini, metodlarini, innovatsion texnologiyalarini ham matn mazmunidan hamda o'quvchilar saviyasidan kelib chiqib belgilaydi. Mahoratli pedagog matn tahlili bilan sodir bo'lishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarga va to'siqlarga tayyor turadi. Ayniqsa sinfdan tashqari mashg'ulotlarni olib borishda o'qituvchi-pedagog eng avval, o'quvchilarining yoshi va saviyasiga qarab asar tanlaydi. O'quvchilarning mustaqil o'qishi kerak bo'lgan adabiyotlar ro'yxati o'quv dasturida belgilangan. Dasturda albatta, ta'lim oluvchilarning yoshi inobatga olingan. Toki, tanlangan badiiy asar tahlili hammaga tushunarli bo'lsin.

Tahlil --yunoncha analiz – parchalanish degan ma'nolarni bildiradi. – Manbalarda izohlanishicha, biror narsaning alohida tomonlarini, xususiyatlarini, tarkibiy qismlarini hisobga olgan holda ilmiy asoslash usuli demakdir. “Badiiy asar tahlili - bu asarning qismlari va elementlarini, shuningdek, ular o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishdir”. Ta'rifdan ko'rinib turibdiki, bir tomondan, bu matn bilan ishlashning qat'iy ilmiy tartibi bo'lib, uni idrok etishning yaxlitligini ma'lum darajada buzadi va aniq adabiy bilimlarga asoslanadi. Boshqa tomondan, matn ham har qanday badiiy asar kabi o'quvchiga hissiy ta'sir ko'rsatadi – hayratga soladi, zavqlantiradi, bir so'z bilan aytganda, hayajonga soladi. Bugungi kitobxon o'ta zukko. Badiiy asar tahlili o'quvchiga matn mazmunini to'la anglashga yordam beradi. Tushuntirish va hayajon turli xil tushunchalar bo'lib, turlicha talqin qilinadi, ko'pincha bir-birini istisno qiladi. Mantiqiy fikrlash va hissiyot o'rtasidagi ziddiyat tenglashadi. Bu holat sinfdan tashqari adabiyotni o'rganish jarayonida yanada og'irlashadi. Badiiy asarni tahlil qilishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida uslubshunos hamda filologlar o'rtasida muhokama va munozaralarga sabab bo'ladi. Badiiy asarni ilk bor ifodali o'qish orqali idrok etishning ahamiyati shundan iboratki, adabiyot darslarini “Ilhom, ruhiy ko'tarilish va axloqiy idrok soatlari” deb atashadi. Maktab o'quvchilari bunday darslarda matnni “qo'llarida qalam bilan” tahlil qilmasliklari kerak, balki “kitob bilan quvonchli muloqot jarayoni sifatida o'qish jarayoniga taslim bo'lishlari” kerak. Asarni tahlil qilishda uning rasmiy, oqilona yoki zerikarli o'rganishini kuzatgan tanqidchilar “Adabiyot darsida badiiy asarni qanday o'qish va qanday tahlil qilish kerak?” muhokamasi ustida tadqiqotlar olib borishgan. Dastlabki o'qishda ko'p narsa yosh kitobxonlarning e'tiboridan chetda qoladi. Matnni shakl va mazmun birligida tahlil qilish, har bir narsada muallif o'rnini his qilish ko'nikmasini shakllantirish orqaligina tafakkurli o'qishga o'rgatish mumkin. Asar





tahlilida falsafadagi “Shakl va mazmun” qonuniyati,”Sabab va oqibat” qonuniyatlari asosida tahlil qilish ham juda qo’l keladi.Chunki bu tushunchalar hamma vaqt ham mutanosib kelavermaydi.

Maktab darsligidagi asarlarni tahlil qilish qanday bo’lishi kerak va u bolani qanday rivojlantirishi mumkin? Adabiy ta’limning qaysi bosqichida darsda asar tahliliga qay darajada, qanday usul va usullar yordamida jiddiy va chuqur kirishish mumkin? Bu savollar ularning o’qituvchilik faoliyatida hech qanday fikrlash, maktabda adabiyot taqdiriga ildiz otish, har qanday ijodkor pedagog tomonidan chetlab o’tmaydi. Bo’lajak adabiyot o’qituvchisi uchun ayni shu savollar deyarli adabiyot o’qitish metodikasi fan sifatida shakllana boshlagan davrdan boshlab ko’tarilganini bilish mumkin. Manbalarda berilishicha, 19-asrning metodist olimlari “tahlil” atamasini ishlatmadilar, lekin ular nazdida,”Kontekstli tahlil immanent tahlil o’rnini bosmasligi, balki uni to’ldirishi, ishni yanada to’liqroq va chuqurroq tushunishga hissa qo’shishi kerak” deb hisoblashdi. U yoki bu turdagi kontekstli ma’lumotlarni jalb qilishning maqsadga muvofiqligi har bir aniq holatda, san’at asarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda belgilanishi kerak.

ADABIYOTLAR:

1. .Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. T., “O’zbekiston”, 2017
2. A.P Skaftymov .Badiiy asar poetikasi. Vysshayashkola, 2007 yil.
- 3.Girshman M. M. Литературное произведение: Теория и практика анализа. М., 2016 год.

